SHARQ ADABIYOTI VA MIFOLOGIYASIDA IERARXIK OBRAZLAR TIZIMI: SHER, SEMURG‘ VA GUL KONSEPTLARINING BADIIY TALQINI

Tolipova Jannat Xasan qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti 3-kurs talabasi
Email: jannatnormatova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21844710

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq adabiyoti, mifologiyasi va xalq og‘zaki ijodida tabiat elementlarining ierarxik tizimi hamda ularning badiiy-falsafiy simvolizmi tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida yer yuzi hukmronligi ramzi bo‘lmish Sher, samoviy dunyo timsoli Semurg‘ (Humo) hamda nafosat va go‘zallik olamining mutloq malikasi hisoblangan Atirgul (Gul) konseptlarining adabiy matnlardagi o‘rni yoritilgan. Alisher Navoiy ijodi hamda klassik “Gul va Bulbul” dostonlari misolida ushbu uch ierarxik obraz orqali inson ruhiyati, jamiyat boshqaruvi va komillik g‘oyalarining badiiy ifodalanish qonuniyatlari tahlil qilingan. Maqola adabiyotshunoslikda ramzlar tabiati va timsollar tizimini o‘rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.
Kalit so‘zlar: ierarxiya, Sher, Semurg‘, Atirgul, ramz, simvolizm, badiiy obraz, Sharq poetikasi, Lison ut-tayr, Gul va Bulbul.

Insoniyat sivilizatsiyasi va badiiy tafakkur taraqqiyoti davomida atrof-muhitni, tabiat hodisalarini ramziylashtirish orqali hayotiy haqiqatlarni ifodalash yetakchi tamoyillardan biri bo‘lib kelgan. Qadimiy mifologik qarashlar, xalq og‘zaki ijodi hamda yozma adabiyot namunalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, insoniyat borliqdagi elementlarni o‘z holicha qoldirmay, ularni muayyan ierarxik (pog‘onali) tizimga solgan. Ushbu tizimning asosi ma’lum bir muhitdagi eng mukammal, kuchli va go‘zal vakilga “hukmdorlik” yoki “shohlik” maqomini berish bilan belgilanadi. Chunonchi, moddiy dunyo va hayvonot olamining qudrati hamda adolati Sher (Arslon) siymosida, samoviy kengliklar va ruhiy yuksaklik cho‘qqisi afsonaviy Semurg‘ (yoki Humo) obrazida mujassamlashgan. Biroq, inson hayotida jismoniy kuch va aqliy yuksaklikdan tashqari, qalb dunyosi, go‘zallik va nafosat tushunchalari ham borki, ushbu olamning mutloq hukmdori va “Gullar malikasi” sifatida Atirgul (Gul) e’tirof etiladi. Bugungi zamonaviy adabiyotshunoslikda ushbu uch xil dunyo ierarxiyasini yer sultonini, osmon sultonini va nafosat olami malikasini yaxlit konseptual tizim sifatida o‘rganish badiiy matnning ichki qatlamlarini, ramzlar poetikasini chuqurroq anglash uchun nihoyatda dolzarb muammo hisoblanadi. Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida ramzlar tabiati, metafora va timsollar tizimi nazariy jihatdan keng tadqiq etilgan. Xususan, mifik obrazlar va dostonchilik an’analari borasida D.Quronov, M.Qo‘shjonov kabi adabiyotshunos olimlarning fundamental qarashlari mavjud. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlaridagi qushlar ramziyasi “Lison ut-tayr” dostoni tahlillari doirasida N.Kamilov va I.Haqqul kabi navoiyshunoslar tomonidan tasavvufiy nuqtai nazardan atroflicha yoritilgan. “Gul va Bulbul” mavzusidagi klassik dostonlarning poetik xususiyatlari ham muayyan darajada o‘rganilgan. Biroq, adabiy-falsafiy matnlarda yer, samo va nafosat olamining uchta ustuni (Sher, Semrug‘, Atirgul) o‘rtasidagi o‘zaro ierarxik aloqa, ularning insoniyatning ideal komillik modeli bilan bog‘liqligi hozirga qadar yaxlit tizimli tadqiqot obyekti sifatida alohida o‘rganilmagan. Ushbu maqola ayni shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan dastlabki qadamlardan biridir.

Insoniyat moddiy dunyoni idrok etar ekan, uning ko‘z o‘ngida jismoniy ustunlik, mardlik va boshqaruv qobiliyati birinchi o‘ringa chiqqan. Hayvonot olamining mutloq hukmdori hisoblangan Sher (Arslon) obrazi yozma adabiyotga o‘tguniga qadar qadimgi

totemistik va mifik qarashlarda qudrat simvoli sifatida shakllangan. Mumtoz adabiyotda, xususan, Alisher Navoiy poetikasida sher adolatli davlat boshqaruvi va dunyoviy hokimiyat modeli bilan sintezlashtiriladi.Navoiy “Xamsa” dostonlarida shohni sherga qiyoslar ekan, undagi ikki muhim xususiyatni ajratib ko‘rsatadi: birinchisi, dushman qarshisidagi murosasizlik va qo‘rqmaslik bo‘lsa, ikkinchisi esa o‘z qo‘l ostidagilarga nisbatan adolatli himoyadir. Ya’ni, sher ierarxiyaning eng yuqori pog‘onasida shunchaki vahshiyligi bilan emas, balki tartib o‘rnata olish xususiyati bilan turadi. Tasavvufiy adabiyotda esa sher insonning o‘z nafsini yenga olish quvvati (Asadulloh timsoli) sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa yer yuzidagi har qanday yuksalish dastlab jismoniy va irodaviy quvvatni shakllantirishdan boshlanishini anglatadi.

Agar Sher moddiy-ijtimoiy dunyoning boshqaruvchisi bo‘lsa, samoviy kengliklar va ma’naviy olamning sultonligi afsonaviy Semurg‘ (yoki Humo) obraziga tegishlidir. Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida ushbu ierarxiya mukammal badiiy qurilmaga ega. Hudhud boshchiligidagi qushlar o‘zlariga sulton izlab yo‘lga chiqqanlarida, ularning maqsadi aynan yetib bo‘lmas tog‘lar ortidagi Semurg‘ huzuriga yetish bo‘ladi.Bu yerda Semrug‘ shunchaki mifologik qush emas. U inson ruhining eng yuksak cho‘qqisi, katarzis (poklanish) va ilohiy haqiqat ramzidir. Unga yetaklab obormoqchi bo’lgan qush esa (Hudhud) pir, murshid, yo‘l ko‘rsatuvchi ustoz timsolidir. Doston oxirida o‘ttizta qush (Si murg‘ - forscha “O‘ttiz qush”) tog‘ cho‘qqisiga yetib kelganida, aslida Semrug‘ ularning o‘z qiyofasi ekanini, ya’ni haqiqiy samoviy hukmdorlik insonning o‘z ichki ma’naviy dunyosida yashirinishini anglab yetadilar. Bu obraz ierarxiyaning ikkinchi bosqichi bo‘lib, u jismoniy quvvatdan (Sherdan) keyingi aqliy va ruhiy yuksalish zaruriyatini ifodalaydi.

Jismoniy qudrat (Sher) va ruhiy yuksaklik (Semurg‘) tizimidan so‘ng, inson borliqni komillik darajasida his qilishi uchun estetik go‘zallik nafosat dunyosi talab etiladi. O‘simliklar va chechaklar olamida bu taxt so‘zsiz Atirgulga (Gulga) tegishlidir. Sharq adabiyotidagi mashhur “Gul va Bulbul” dostonlari hamda lirik janrlar tahlili Atirgulning gullar ichidagi ierarxik mavqeyini aniq ko‘rsatadi. Hattoki “Lison ut-tayr” dostonida ham bulbulning gulga oshiqligi tufayli, uning hasratiga chidolmay qaytib ketishini aytadi. Nega aynan Atirgul malikalik maqomiga ega? Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uning simvolikasi dualistik (ikki tomonlama) tabiatga ega:

Mutloq husn va ifor: Uning go‘zalligi va xushbo‘yligi borliqdagi barcha chechaklardan ustun turadi va barcha unga ta’zim qiladi.

Himoya va g‘urur (Tikanlar): Atirgul shunchaki ojiz go‘zallik emas. Uning tanasidagi tikanlar uning daxlsizligi, g‘ururi va o‘zini tashqi xavflardan himoya qila olish quvvatidir. Bundan tashqari Atirgul haqida boshqa mifologik qarashlar ham mavjud. Masalan 1890-yilda Hargrave Jennings tomonidan yozilgan “Fishes, Flowers, and Fire” kitobida qiziqarli ma’lumot berilgan. Mifologiyada “Yuz yaproqli atirgul” (Rosa centifolia) an’anaviy ravishda omad, to‘kin-sochinlik va baraka keltiruvchi bosh farishta Baraxielga (Barachiel) bag‘ishlangan bo‘lib, u san’atda hamisha qo‘lida atirgul shoxlarini tutgan holatda tasvirlanadi. Shu bilan birga, atirgulning mukammal geometrik tuzilishi samoviy nizom va eng oliy bosh farishta Metatronning boshqaruvidagi “ilohiy tartib” kodi sifatida ko‘rilgan. Xalq orasidagi qadimgi e’tiqodlarga ko‘ra, yer yuzidagi har bir atirgulning osmonda o‘z farishtasi bor va gul uning amri bilan o‘z iforini taratadi. Sharq mifologiyasi va islomiy rivoyatlarda atirgul ilohiy mo‘jiza hamda imon g‘alabasi ramzi sifatida ulug‘lanadi. Qur’on talqinlarida keltirilishicha, Ibrohim payg‘ambar zolim hukmdor Namrud (Nimrod) tomonidan ulkan gulxanga (pechga) tashlanganida, Tangrining amri bilan olov sovuq va salomatlik maskaniga qizil atirgulzorga aylangan. Fors madaniyatida, ayniqsa, qadimiy otashparastlik (zardushtiylik) e’tiqodidan islomga o‘tish davrida bu voqea olovning halokatli kuchidan ustun kelgan haqiqiy ilohiy ishq timsoli deb qabul qilingan. Shuning uchun ham sharq she’riyati va adabiyotida atirgul daxshatli sinovlar ichidan omon chiqqan sof

ma’naviyat, imon hamda “Gulzori Ibrohim” (Ibrohim bog‘i) tushunchalari bilan uzviy bog‘lanadi.

Xulosa shuki, sharq adabiyoti, mifologiyasi va folklorida tabiat elementlari aniq bir tizim asosida guruhlanib, muayyan ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalarni ochib berishga xizmat qilgan. Umumiy yana bir xulosa sifatida aytish mumkinki, adabiy matnlardagi Sher, Semurg‘ va Atirgul ierarxiyasi yaxlitlikda inson kamolotining mukammal modelini tashkil etadi. Bu kabi ramziy obrazlar tizimini tadqiq etish zamonaviy adabiyotshunoslikda matn poetikasini va ramzlar tabiatini chuqurroq anglashga keng yo‘l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Hargrave Jennings - “Fishes, Flowers, and Fire”1890, London
2. Abulqosim Firdavsiy, - “Shohnoma” Saylanma, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent - 2012
3. https://www.ziyouz.com/kutubxona
4. https://xdp.uz/uploads/documentation/5.pdf
5. https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/40-alisher-navoiy-asarlari